# XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI DANG‘ARA TUMAN KENGASHI QARORI

2024 - yil 24 - fevral VI-88-24-11-155-K/24 Dang‘ara tuman hokimligi

## Dang‘ara tumani 2024 yilda aholi bandligini ta’minlash dasturini tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezideitining 2024 yil 9 yanvardagi PQ-7 sonli qarori to‘g‘risda

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yangi ish o‘rinlarlarini yaratishga qaratilgan imtiyozli resurslar, mexanizm va yengilliklardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali aholi bandligini ta’minlash, iqtisodiyot tarmoqlarida rasmiy band bo‘lgan fuqarolarni rag‘batlantirish tizimini takomallashtirish maqsadida:

Shunga ko‘ra tumanda 2024 yil uchun aholini daromad keltiradigan mehnat bilan band qilish bo‘yicha tarmoqlar kesimida maqsadli ko‘rsatkichlari shakllantirilib, shunga ko‘ra tuman bo‘yicha 19 513 nafar aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish rejalashtirilgan.

Xususan, investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga 1130-nafar, qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligi sohasida 12 066 nafar, moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga 5900 nafar, qurulish sohasida 417 nafar aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish ko‘zda tutilmoqda.

Tumanning 2024 yilda aholi bandligi ta’minlash Dasturida belgilangan parametrlar, prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida, tizimli va samarali bajarilishida albatta joylarda mahalliy ijro hokimiyati organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va keng jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va javobgarlik mexanizmlaridan samarali foydalanish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 maydagi PQ-2690-sonli qaroriga muvofiq joylarda mahalliy ijro hokimiyati organlari va iqtisodiy kompleksga kiruvchi hududiy organlar rahbarlarining, ularni moddiy rag‘batlantirish yoki ularga nisbatan intizomiy chora qo‘llash bo‘yicha tegishli tizimni joriy etgan holda, aholi bandligining o‘sishi va uni ish bilan ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligi va samaradorligi uchun mahalliy ijro hokimiyati organlari va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas’uliyati oshirildi.

Tumanda band boʻlmagan aholini, ayniqsa, yoshlarni ishga joylashtirish boʻyicha chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnat muhofazasini kuchaytirish, aholi bandligini taʼminlash boʻyicha muvofiqlashtirilgan samarali ishlarni amalga oshirishda davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlarining masʼuliyatini yanada kuchaytirish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman kengashi

**Q A R O R  Q I L A D I:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezideiti Sh.M.Mirziyoevning 2024 yil 9 yanvardagi PQ-7 sonli qarori yuzasidan yangi ish oʻrinlarni tashkil etish va aholi bandligiga koʻmaklashish dasturi toʻgʻrisdagi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda 2024 yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish boʻyicha shakllantirilgan prognoz koʻrsatkichlari toʻgʻrisida tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi boshligʻi I.Usmonovning axboroti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumanda 2024 yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish boʻyicha prognoz koʻrsatkichlari (keyingi oʻrinlarda-maqsadli koʻrsatkichlar) viloyat ishchi komissiyasi tomonidan koʻrib chiqilib, tasdiqlanganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

4. Qoʻyidagilar:

2024 yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish yigʻma maqsadli koʻrsatkichlari **1-ilovaga muvofiq**;

2024 yilda yirik va xududiy investitsiya loyihalarni ishga tushirish hisobiga yangi ish oʻrinlarni tashkil etishning maqsadli, koʻrsatkichlari **1,1-ilovaga** muvofiq;

2024 yilda xizmat koʻrsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi bandligini taʼmiglash va yangi ish oʻrinlarini tashkil etishning maqsadli koʻrsatkichlari **1,2-ilovaga** muvofiq;

2024 yilda qishloq xoʻjaligi sohasida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilish maqsadli koʻrsatkichlari **1,3-ilovaga** muvofiq;

2024 yilda qurulish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilishning maqsadli koʻrsatkichlari **1,4-ilovaga** muvofiq;

yangi moliyaviy xizmat turlarini joriy qilish, shu jumladan mikromoliyalashni kengaytirish orqali 2024-yilda 10,5 ming aholini biznesga jalb qilishning maqsadli koʻrsatkichlari **2-ilova**ga muvofiq;

Dangʻara tumanida 2024-yilda yangi ish oʻrinlarini tashkil etish va aholi bandligiga koʻmaklashish dasturini amalga oshirish boʻyicha “yoʻl xaritasi” **4- ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5. Maqsadli koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va sifatli bajarish yuzasidan qoʻyidagi idoralar rahbarlari tegishli yoʻnalishlar boʻyicha masʼul ekanligi belgilab qoʻyilsin:

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Akramov, Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi (J.Alidjanov), tuman hokimligi investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga 1130 ta ish o‘rni yaratishga;

Tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Shokirov, qishloq xo‘jaligi inspeksiyasi (Sh.Shokirov), qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligi sohasida 12 066 ta ish o‘rni yaratishga;

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Akramov, Davlat soliq inspeksiyasi (A.Shamsiddinov), Hunarmand uyushmasi tuman kengashi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (I.Usmonov), moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga ish o‘rinlarini tashkil etish orqali 5900 ta ish o‘rni yaratishga;

Tuman hokimining o‘rinbosari, T.Salimov, qurulish bo‘limi (T.Salimov), qurulish sohasida 417 ta ish o‘rni yaratishga;

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (I.Usmonov), Davlat soliq inspeksiyasi (A.Shamsiddinov),- mas’ul davlat organlari va tashkilotlari tomonidan maqsadli ko‘rsatkichlar o‘z vaqtida bajarilishini muvofiqlashtirishga.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan mas’ul bo‘limlar, idora va xujalik birlashmalari hamda tuman hokimligi har oy yakuniga kura keyingi oyning birinchi sanasiga qadar soliq organlari ma’lumotlar bazasi bilan solishtirgan holda tegishli ma’lumotlarni umumlashtirish uchun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etib borsin.

6. Tuman hokimligi mavjud ish urinlari bo‘yicha aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar, shu jumladan bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha mehnat yarmarkalarining tashkil etish, kasb-hunarga o‘qitish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish va alohida toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish, bu borada mavjud imkoniyatlardan keng va samarali foydalanish choralarini ko‘rib borsin.

Bunda, mehnat yarmarkalarini samarali tashkil etish, yarmarkalarga aholini ko‘proq qismini qamrab olish orqali ularni ishga joylashtirish;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlaridan maqsadli va samarali foydalanish;

kasbga tayyorlash kurslarini samarali va tizimli tashkil etish, bunda aholini ko‘proq jalb qilish hamda mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida va samarali o‘tishini doimiy nazorat qilib borish;

mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini sabablarini tahlil qilish va kelgusida uni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbir ishlab chiqish vazifalari yuklansin.

7. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (I.Usmonov), tuman davlat soliq inispeksiya boshlig‘i (A.Shamsiddinov) bilan

birgalikda xizmatlar sohasidagi yuridik shaxslar tomonidan yaratilayotgan ish o‘rinlarini soliq organi ma’lumotlari bazasida qayd etib borilishini tashkil etib borsin.

Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan birgalikda xisobot davrida yaratilgan ish o‘rinlari soni tahlili jarayonida tegishli sohalar tomonidan yaratilgan ish o‘rinlarini xisobotlarga takroran qo‘shish orqali ko‘rsatkichlarni sun’iy oshirish holatlarini oldini olish choralarini ko‘rib borsin.

8. Kambag‘allikni kiskartirish va bandlikka kumaklashish bo‘limi (I.Usmonov) tuman hokimi bilan birgalikda joriy yilning 1-choragida tashkil etiladigan mehnat yarmarkalari reja- jadvalini ishlab chiqilib, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar orqali keng jamoatchilikka ma’lum qilsin.

9. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (I.Usmonov), Kasaba uyushmalari kengashi (M.Suyunboev, S.Obidjonov, M. Muxamxujaev) mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan nazorat tadbirlarini samarali tashkil etib borsin, aniqlangan qonun buzilish holatlarini sabablarini tahlil qilib, kelgusida uni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbir belgilab borsin.

10. Belgilansinki, hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar (Dasturlar ijrosi) yuzasidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida:

har chorak yakuni bilan tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi rahbarlarining tegishli xalq deputatlari mahalliy kengash sessiyalarida;

2024 yil 1-chorak yakuni bilan hamda kelgusida har oy yakuni bilan tuman hokimi xalq deputatlari tuman Kengashida hisoboti tinglab borish amaliyoti yo‘lga qo□‘yilsin.

11. Xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyalari raislari maqsadli ko‘rsatkichlarni bajarilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tarmoqlar kesimida nazorat qilish bo‘yicha alohida reja ishlab chiqsin hamda doimiy komissiya yig‘ilishlarida doimiy ravishda muhokama qilib borsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari o‘z hududlarda maqsadli ko‘rsatkichlarni bajaralishi yuzasidan qat’iy deputatlik nazorati o‘rnatsin hamda aniqlangan muammolar yuzasidan doimiy ravishda doimiy komissiya yig‘ilishlari hamda Kengash sessiyalariga axborot kiritib borsin.

**Kengash raisi** **Sh.Tojixakimov**

Xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashining
2024-yil 24-fevraldagi
VI-88-24-11-155-K/24-son qaroriga
1-ilova

**2024 yilda aholini doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta’minlash**
**PROGNOZ PARAMETRLARI**

| № | Hududlar nomi | JAMI | shundan: | | | sohalar kesimida: | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Doimiy | Mavsumiy | Vaqtinchalik | Investitsiyalar mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga | *shundan:* | | Xizmat ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga | *shundan:* | | Qishloq xo‘jaligida | *shundan:* | | Qurilish sohasida | *shundan:* | |
| | | | | | | | *Yirik (tarmoq) investitsiya loyihalari* | *Xududiy investitsiya loyihalari* | | *Doimiy* | *Vaqtinchalik* | | *Doimiy* | *Mavsumiy* | | *Doimiy* | *Vaqtinchalik* |
| | **Dang‘ara tumani** | **19 513** | **5 393** | **10 896** | **3 224** | **1 130** | **160** | **970** | **5 900** | **2 954** | **2 946** | **12 066** | **1 170** | **10 896** | **417** | **139** | **278** |
| 1 | 1-sektor | **5 203** | 1 313 | 2 998 | 892 | **289** | *34* | *255* | **1 517** | **705** | *812* | **3 295** | *297* | *2 998* | 102 | *22* | *80* |
| 2 | 2-sektor | **3 915** | 1 145 | 2 167 | 603 | **268** | *21* | **247** | **1 126** | **577** | *549* | **2 442** | *275* | *2 167* | *79* | *25* | *54* |
| 3 | 3-sektor | **5 748** | 1 497 | 3 203 | 1 048 | **321** | *60* | **261** | **1 782** | **823** | *959* | **3 515** | *312* | *3 203* | *130* | *41* | *89* |
| 4 | 4-sektor | **4 647** | 1 438 | 2 528 | 681 | **252** | *45* | **207** | **1 475** | **849** | *626* | **2 814** | *286* | *2 528* | *106* | *51* | *55* |

Xalq deputatlari Dang‘ara tuman
Kengashining
2024-yil 24-fevraldagi
VI-88-24-11-155-K/24-son qaroriga
2-ilova

**2024 yilda yirik va hududiy investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga tashkil etiladigan yangi ish o‘rinlari**
**PROGNOZ PARAMETRLARI**

1,1-ilova

| № | Hududlar nomi | JAMI | *jumladan:* | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | **Yirik** *(tarmoq)* **investitsiya loyihalari** | *shundan:* | | | **Xududiy investitsiya loyihalari** | *shundan:* | | |
| | | | | *Sanoatda* | *Xizmat ko‘rsatish* | *Qishloq xo‘jaligi* | | *Sanoatda* | *Xizmat ko‘rsatish* | *Qishloq xo‘jaligi* |
| 1 | Dang‘ara tumani | **1 130** | **160** | **160** | **0** | **0** | **970** | **846** | **86** | **38** |
| 2 | 1-sektor | **289** | **34** | *34* | | | **255** | *202* | *29* | *24* |
| 3 | 2-sektor | **268** | **21** | *21* | | | **247** | *198* | *45* | *4* |
| 5 | 3-sektor | **321** | **60** | *60* | | | **261** | *245* | *12* | *4* |
| 6 | 4-sektor | **252** | **45** | *45* | | | **207** | *201* | *0* | *6* |

Xalq deputatlari Dang'ara tuman Kengashining
2024-yil 24-fevraldagi
VI-88-24-11-155-K/24-son qaroriga
3-ilova

**2024 yilda xizmat ko'rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta'minlash**
**PROGNOZ PARAMETRLARI**

*1,2-ilova*

| № | Hududlar nomi | JAMI | shundan: | | jumladan: | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Doimiy | vaqtinchalik | Xizmat ko'rsatuvchi subyektlarda tashkil etilgan ish o'rinlari *(yuridik va YATTlardagi yangi ish o'rni)* | Jumladan: | | *shundan:* | | | | | | | | | | | | | | Xizmatlar sohasida o'zini o'zi band qilish | Jumladan: | | Norasmiy ish o'rinlarini rasmiy sektorga o'tkazish |
| | | | | | | | | *Ijtimoiy sohalar* | | *Umumiy ovqatlanish* | *shundan:* | | *Savdo* | *shundan:* | | *Maishiy xizmatlar* | *shundan:* | | *Boshqa xizmat ko'rsatish* | *shundan:* | | | | | |
| | | | | | | Doimiy | vaqtinchalik | *Ta'lim xizmatlari* | *Sog'liqni saqlash xizmatlari* | | *Doimiy* | *Vaqtin-chalik* | | *Doimiy* | *Vaqtin-chalik* | | *Doimiy* | *Vaqtin-chalik* | | *Doimiy* | *Vaqtin-chalik* | | Doimiy | Mavsumiy | |
| | Dang'ara tumani | ***5 900*** | ***2 954*** | ***2 946*** | ***1 475*** | ***765*** | ***710*** | ***21*** | ***38*** | ***41*** | ***22*** | ***19*** | ***51*** | ***25*** | ***26*** | ***30*** | ***15*** | ***15*** | ***1 294*** | ***644*** | ***650*** | ***3 196*** | ***960*** | ***2 236*** | ***1 229*** |
| 1 | 1-sektor | **1 517** | **705** | *812* | **371** | **196** | **175** | *12* | *12* | *8* | *4* | *4* | *11* | *6* | *5* | *9* | *4* | *5* | *319* | *158* | *161* | *835* | *198* | *637* | *311* |
| 2 | 2-sektor | **1 126** | **577** | *549* | **362** | **183** | **179** | *5* | *10* | *9* | *5* | *4* | *14* | *7* | *7* | *8* | *4* | *4* | *316* | *152* | *164* | *572* | *202* | *370* | *192* |
| 3 | 3-sektor | **1 782** | **823** | *959* | **435** | **231** | **204** | *4* | *10* | *11* | *6* | *5* | *16* | *8* | *8* | *6* | *3* | *3* | *388* | *200* | *188* | *935* | *180* | *755* | *412* |
| 4 | 4-sektor | **1 475** | **849** | *626* | **307** | **155** | **152** | | *6* | *13* | *7* | *6* | *10* | *4* | *6* | *7* | *4* | *3* | *271* | *134* | *137* | *854* | *380* | *474* | *314* |

Xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashining
2024-yil 24-fevraldagi
VI-88-24-11-155-K/24-son qaroriga
4-ilova

**2024 yilda qishloq xo‘jaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilish**
**PROGNOZ PARAMETRLARI**

*1,3-ilova*

| № | Hududlar nomi | JAMI | shundan: | | jumladan: | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Doimiy | Mavsumiy | Agro klasterlarda | *shundan:* | | Fermer xo‘jaliklarida | *shundan:* | | Dehqon xo‘jaligi uchun yer ajratish *(YE-auksion)* | *shundan:* | | Takroriy ekin uchun g‘alladan bo‘shagan yer maydonlarini ajratish *(mavsumiy)* | Tomorqada bandlik (mavsumiy) | Pillachilik | *shundan:* | | Suv xo‘jaligi obyektlari muhofaza zonasi atrofidagi yerlar hisobidan | *shundan:* | |
| | | | | | | *doimiy* | *mavsumiy* | | *doimiy* | *mavsumiy* | | *doimiy* | *mavsumiy* | | | | *doimiy* | *mavsumiy* | | *doimiy* | *mavsumiy* |
| | **Dang‘ara tumani** | **12 066** | **1 170** | **10 896** | **432** | ***60*** | ***372*** | **2 442** | ***372*** | ***2 070*** | **831** | **277** | **554** | **876** | **1 103** | **6 207** | ***450*** | ***5 757*** | **175** | **11** | **164** |
| 1 | 1-sektor | **3 295** | *297* | *2 998* | **107** | *15* | *92* | **616** | *92* | *524* | **254** | **89** | **165** | **224** | **275** | **1 544** | *98* | *1 676* | **45** | **3** | **42** |
| 2 | 2-sektor | **2 442** | *275* | *2 167* | **125** | *20* | *105* | **600** | *105* | *495* | **137** | **25** | **112** | **195** | **152** | **1 444** | *123* | *1 070* | **40** | **2** | **38** |
| 3 | 3-sektor | **3 515** | *312* | *3 203* | **103** | *10* | *93* | **612** | *93* | *519* | **236** | **101** | **135** | **242** | **344** | **1 620** | *105* | *1 813* | **60** | **3** | **57** |
| 4 | 4-sektor | **2 814** | *286* | *2 528* | **97** | *15* | *82* | **614** | *82* | *532* | **204** | **62** | **142** | **215** | **332** | **1 599** | *124* | *1 198* | **30** | **3** | **27** |

Xalq deputatlari Dang'ara tuman Kengashining
2024-yil 24-fevraldagi
VI-88-24-11-155-K/24-son qaroriga
5-ilova

**2024 yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish**
**PROGNOZ PARAMETRLARI**

*1,4-ilova*

| № | Hududlar nomi | JAMI | shundan: | | jumladan: | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Doimiy | Mavsumiy | *Uy-joy qurilishi* | *Shundan* | | *Sanaot korxonalar qurilishi* | *Shundan* | | *Ijtimoiy obyektlar qurilishi* | *Shundan* | | *Avtomobil va temir yo'l qurilishi* | *Shundan* | |
| | | | | | | *doimiy* | *mavsumiy* | | *doimiy* | *mavsumiy* | | *doimiy* | *mavsumiy* | | *doimiy* | *mavsumiy* |
| | Dang'ara tumani | **417** | **139** | **278** | **322** | **105** | **217** | **20** | **7** | **13** | **48** | **19** | **29** | **27** | **8** | **19** |
| 1 | 1-sektor | *102* | *22* | *80* | *81* | *15* | *66* | *5* | *1* | *4* | *10* | *4* | *6* | *6* | **2** | **4** |
| 2 | 2-sektor | *79* | *25* | *54* | *58* | *17* | *41* | *5* | *2* | *3* | *10* | *4* | *6* | *6* | **2** | **4** |
| 3 | 3-sektor | *130* | *41* | *89* | *104* | *31* | *73* | *5* | *2* | *3* | *14* | *6* | *8* | *7* | **2** | **5** |
| 4 | 4-sektor | *106* | *51* | *55* | *79* | *42* | *37* | *5* | *2* | *3* | *14* | *5* | *9* | *8* | **2** | **6** |

Xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashining
2024-yil 24-fevraldagi
VI-88-24-11-155-K/24-son qaroriga
6-ilova

**2024 yilda 2 million aholini biznesga jalb qilishning**
**MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI**

*2-ilova*

| T/r | Mas’ul bank | Hududlar | Jami | shundan, o‘zini o‘zi band qilish hisobiga | yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga | yangi korxonalar hisobiga | Dehqon xo‘jaliklari hisobiga |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Jami** | | | **10 530** | **4 130** | **500** | **500** | **5 400** |
| 1 | "Biznesni rivojlantirish banki" ATB | *Dang‘ara tumani* | *10 530* | *4 130* | *500* | *500* | *5 400* |
| | Dang‘ara tumani | | | | | | |
| **1** | 1-sektor | | 2700 | 1035 | 125 | 125 | 1415 |
| **2** | 2-sektor | | 2550 | 1030 | 125 | 125 | 1270 |
| **3** | 3-sektor | | 2700 | 1035 | 125 | 125 | 1415 |
| **4** | 4-sektor | | 2580 | 1030 | 125 | 125 | 1300 |

Xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashining
2024-yil 24-fevraldagi
VI-88-24-11-155-K/24-son qaroriga
7-ilova

**2024 yilda Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumaninida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturini amalga oshirish aholi turmush tarzini yaxshilash va ijtimoiy himoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan muhim vazifalar yuzasidan**

## YO‘L XARITASI

*4-ilova*

| T/r | Amalga oshirilishi belgilangan ustuvor vazifalar | Amalga oshirish mexanizmi | Muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Tasdiqlangan investitsiya dasturlari xususan sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalaridagi loyihalarni amalga oshirish hisobiga **1130** ta ish o'rinlari tashkil etish. | 1. Har bir loyihaning amalga oshirilishi bo'yicha oyma-oy tarmoq jadvali ishlab chiqish.<br>2. Tasdiqlangan tarmoq jadvali bo'yicha loyihalarni o'z muddatlarida ishga tushirish hisobiga 1-sektorda 255 ta, 2-sektorda 369 ta, 3-sektorda 199 ta va 4-sektorda 280 ta ish o'rinlari tashkil etish choralarini ko'rish.<br>3. Ishsiz fuqarolarni, birinchi navbatda "Temir", "Ayollar", "Yoshlar" daftarlariga kiritilgan fuqarolarni ushbu yaratilgan yangi ish o'rinlariga ishga joylashtirib borish.<br>4. Yaratilgan ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirib viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasiga taqdim etish | Ikki hafta Muddatda<br><br>2024 yil davomida<br><br>Har oyning 30 sanasiga qadar | Tuman hokimining o'rinosari J.Alidjanov, Investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, Markaziy bank, tuman sektor rahbarlari<br><br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi,<br><br>Investitsiya va tashqi savdo bo'limi, tuman sektor rahbarlari |

| T/r | Amalga oshirilishi belgilangan ustuvor vazifalar | Amalga oshirish mexanizmi | Muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 2. | Qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi yo'nalishida 12 066 nafar Aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish. | 1. Aholini o'z tomorqasida va qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yer maydonlarini dehqon xo'jalgi tashkil etish uchun ajratish va boshqa qishloq xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish hisobiga 1-sektorda 3065 ta, 2-sektorda 2693 ta, 3-sektorda 3217 ta va 4-sektorda 3091 ta ish o'rinlari tashkil etish choralarini ko'rish.<br>2. Xususan, pillachilik sohasini rivojlantirish hisobiga 6207 ta.<br>3. Agroklasterlarda 432 ta.<br>4. Fermer xo'jaliklarida 2442 ta.<br>5. Takroriy ekinga yer berish va tomorqa xizmatini rivojlantirish hisobiga 876 ta.<br>6. Dehqon xo'jaligi tashkil etish uchun 831 ming gektar ekin yer maydonlarini (15-20 sotixdan) ajratib berish ish o'rinlari tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash.<br>6. Yaratilgan ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirib xar oy yakuni bilan viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasiga taqdim etish. | 2024 yil davomida<br><br>Har oyning 30 sanasiga qadar | Tuman hokimining o'rinbosari Sh.Shokirov, Qishloq xo'jaligi bo'limi, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, "Agro pilla" MChJ, shahar va tuman sektor rahbarlari<br><br>Qishloq xo'jaligi bo'limi va tuman sektor rahbarlari |

| T/r | Amalga oshirilishi belgilangan ustuvor vazifalar | Amalga oshirish mexanizmi | Muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 3. | Xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik rivojalantirish kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida 5900 ta nafar aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish. | 1. Moliya-iqtisodiyot, savdo va servis, xizmat ko‘rsatish, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish loyihalarini amalga oshirish hisobiga 1-sektorda 1405 ta, 2-sektorda 1331 ta, 3-sektorda 1459 ta va 4-sektorda 1705 ta ish o‘rinlari tashkil etish choralarini ko‘rish.<br>1. Xususan,xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlarda tashkil etilgan ish o‘rinlari 1475 ta.<br>2. Xizmatlar sohasida o‘zini o‘zi band qilish 3196 ta.<br>3. Norasmiy mehnat faoliyatini rasmiylashtirish va bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirish hisobiga 1229 ta.<br>4. Yaratilgan ish o‘rinlari haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirib xar oy yakuni bilan viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasiga taqdim etish. | 2024 yil davomida<br>Har oyning 30 sanasiga qadar | Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Akramov, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Davlat soliq Inspeksiyasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi , va tuman sektor rahbarlari<br>Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Davlat soliq inspeksiyasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, va tuman sektor rahbarlari |
| 4. | Qurilish sohasi yo‘nalishida 417 ta nafar aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish | Qurilish sohasi yo‘nalishida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish hisobiga<br>1-sektorda 77 ta, 2-sektorda 82 ta, 3-sektorda 117 ta va 4-sektorda 141 ta ish o‘rinlari tashkil etish choralarini ko‘rish. | 2024 yil davomida<br>Har oyning 30 sanasiga qadar | Tuman hokimining o‘rinbosari T.Salimov Davlat soliq Inspeksiyasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi va tuman sektor rahbarlari |

| T/r | Amalga oshirilishi belgilangan ustuvor vazifalar | Amalga oshirish mexanizmi | Muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 5 | Bandlik xizmat ko'rstish yo'nalishida 3072 ta nafar aholini doimiy va mavsumiy ishlar bilan band qilish ishga joylashtirish, kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish, subsidiyalar ajratish | 1. Bandlik xizmat ko'rstish yo'nalishida aholini doimiy va mavsumiy ishlar bilan band qilish<br>2. 1-sektorda 780 ta,<br>2-sektorda 740 ta, 3-sektorda 792 ta va 4-sektorda 760 ta ishsiz<br>Xususan<br>1. Ishga joylashtirish 1563 nafar<br>2. Kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish 594 nafar<br>3. Xaq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish 680 nafar<br>4. Subsidiyalar ajratish 235 nafar fuqarolarni, birinchi navbatda "Temir", "Ayollar", "Yoshlar" daftarlariga kiritilgan fuqarolarni вщsh vakant va kvota ish o'rinlar ishga joylashtirib borish. | 2024 yil davomida | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, va tuman sektor rahbarlari |
| 6 | 2 million aholini biznesga jalb qilish, aholini hisobiga **10 530 ta** nafar aholi bandligini ta'minlash. | "Biznesni rivojlantirish banki" ATB<br>1.O'zini o'zi band qilish hisobiga 4130 ta<br>2. Yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga 500 ta<br>3. Yangi korxonalar hisobiga 500 ta<br>4. Dehqon xo'jaliklari hisobiga 5400 ta ish o'rinlari tashkil etish choralarini ko'rish. | 2024 yil davomida | Tuman hokimining birinchi o'rinbosari R.Akramov, Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Davlat soliq Inspeksiyasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi ,<br>va tuman sektor rahbarlari |